

Filialda ochiq eshiklar kuni

27 noyabr kuni TIQXMMI Qarshi filialida "Ochiq eshiklar" kuni bo'lib o'tdi. Ochiq eshiklar kunida, filialimizga Qarshi tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi va 55-umumiy o'rta ta'lim maktabi bir guruh o'qituvchi xodimlari boshchiligida bitiruvchi sinf o'quvchilari tashrif buyurdi. O'quvchilarni Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i B. Ro'ziqulov kutib olib, filialda talabalarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirdi. Filial haqida barcha ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazdi.



Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i B.Ro'ziqulov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov